



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3 uy

“IRBIS UYCHI SOCCER” XK
direktori
Axmedov Anvarjon Zokirjonovich

1 iyul 2026 yil.

05/8-7998-son

Nusxasi: **Bojxona brokerlari**
uyushmasi

Bojxona qo‘mitasi tomonidan Sizning Bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda bildirgan murojaatingiz ko‘rib chiqilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 301-moddasida bojxona qiymatini aniqlash qoidalari Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh bitimning VII moddasida hamda Tariflar va savdo bo‘yicha Bosh bitimning VII moddasini qo‘llash to‘g‘risidagi bitimda (keyingi o‘rinlarda - Bitim) belgilangan **umumiy prinsiplar va qoidalarga asoslanishi** belgilangan.

Bitimning 10-moddasida **bojxona qiymatini aniqlash maqsadida** maxfiylik asosida taqdim etilgan barcha ma‘lumotlar tegishli organlar tomonidan **qat‘iy maxfiy (konfidensial)** deb hisoblanishi va bunday ma‘lumotlarni taqdim etgan shaxs ruxsatisiz **oshkor etilmasligi** belgilab qo‘yilgan.

Shunigdek, Jahon bojxona tashkilotining “Bojxona qiymatini nazorat qilish bo‘yicha Amaliy tavsiyalari”da bojxona qiymatiga oid narx ma‘lumotlari ochiq e‘lon qilinishi, importyor tomonidan nazorat chegaralarini **oldindan bilish orqali** bojxona qiymatini **manipulyatsiya qilish** (invoysni soxtalashtirish) xavfini yuzaga keltirishi va bu Bitim qoidalariga **zid ekanligi** ta‘kidlangan.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, bojxona qiymatiga oid narx ma‘lumotlarini ochiq e‘lon qilish xalqaro va milliy qonunchilik talablariga **zid ekanligi** ma‘lum qilinadi.

Bundan tashqari, bojxona qiymati bo‘yicha maslahatlashuv davomida bojxona organi tomonidan taqdim etilgan, bojxona qiymati asos qilib olinayotgan tovarga oid to‘liq ma‘lumotlarni (nomi, vazni, miqdori va b.) TIF ishtirokchisiga **avtomatik yuborish** yuzasidan tegishli axborot tizimlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur javob xati Sizni qanoatlantirmagan taqdirda, o‘rnatilgan tartibda yuqori turuvchi idoralarga yoki sud organlariga murojaat qilish huquqiga ega ekanligingizni ma‘lum qilamiz.

Bojxona to‘lovlari
boshqarmasi boshlig‘i



A. Muqimov

OMH6975

OMH6975

OMH6975

OMH6975

Ijr.: D.Raxmonov
Tel: 55-502-76-00 (75-49)

OMH6975